

**TIJORAT BANKLARIDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI
RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI, MAVJUD MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR**

Abdusalomov Raxmonkul Erkinovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston bank sektorida islomiy bank xizmatlarini joriy qilish hamda ularni rivojlantirish yo‘nalishlari o‘rganilgan bo‘lib, bu boradagi mavjud muammolar va ularga optimal yechimlar sifatida tegishli takliflar berilgan. Dunyo hamjamiyati iqtisodiy inqirozlarga turli usullar bilan kurashgani holda islom moliyasiga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib borayotgan bir vaqtda, O‘zbekistonda hanuzgacha mazkur yo‘nalishning amaliyotga, xususan bank sektoriga joriy qilinishi bo‘yicha aniq yechimlar asosida bir to‘xtamga kelinmadi. Buning sababi o‘laroq bir qancha to‘siqlarni ko‘rishimiz mumkin, jumladan, mazkur yo‘nalishni tartibga solib turuvchi me’yoriy-huquqiy hujjat, ya’ni qonunchilik bazasining yo‘qligi. Shuningdek, odamlarning islom dini qoidalarini shariy tomondan tub mohiyatini anglab yetish bo‘yicha xabardorlik darajasining pastligi ham islom moliyasining jadal rivojlanib ketmayotganligidan dalolatdir. Mazkur maqolamizda islom bank xizmatlarining rivojlangan chet davlatlardagi holati ham tahlil qilinib, O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy qilish hamda ularni salmog‘ini oshirish va rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Islom moliyasi, islomiy bank xizmatlari, murobaha, mushoraka, muzoraba, salam, sukuk, investitsiya.

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКИХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ
В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ, СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И
РЕШЕНИЯ**

Абдусаломов Раҳмонкул Эркинович

Банковская-Финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация: В данной статье изучены внедрение исламских банковских услуг в банковский сектор Узбекистана и направления их развития, приведены существующие проблемы в этом плане и соответствующие предложения в качестве оптимальных решений. В то время, когда мировое сообщество борется с экономическими кризисами различными способами и его интерес к исламским финансам возрастает, Узбекистан пока не пришел к выводу, основанному на конкретных решениях по реализации этого направления на практике, особенно в банковском секторе. В качестве причины мы видим ряд препятствий, в том числе отсутствие законодательной базы, регулирующей это направление. Также низкий уровень осведомленности населения о принципах исламской религии с точки зрения шариата является признаком того, что исламские финансы не развиваются быстрыми темпами. В данной статье также проанализировано положение исламских банковских услуг в развитых зарубежных странах, исходя из специфических социально-экономических условий Узбекистана, сделаны предложения по внедрению исламских банковских услуг в коммерческих банках, а также направления по увеличению и развивая их.

Ключевые слова: Исламские финансы, Исламские банковские услуги, Мурабаха, Мушарака, Музараба, Салам, Сукук, Инвестиции.

PROSPECTS OF THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC BANKING SERVICES IN COMMERCIAL BANKS, EXISTING PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abdusalomov Raxmonkul Erkinovich

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract

In this article, the introduction of Islamic banking services in the banking sector of Uzbekistan and directions for their development are studied, the existing problems in this regard and relevant proposals as optimal solutions are given. At a time when the world community is fighting economic crises in various ways and its interest in Islamic finance is increasing, Uzbekistan has not yet come to a conclusion based on specific solutions for the implementation of this direction in practice, especially in the banking sector. As a reason for this, we can see a number of obstacles, including the absence of a legal framework regulating this direction. Also, the low level of people's awareness of the principles of Islamic religion from the Shariah point of view is a sign that Islamic finance is not developing rapidly. In this article, the situation of Islamic banking services in developed foreign countries is also analyzed, based on the specific socio-economic conditions of Uzbekistan, proposals are made for the introduction of Islamic banking services in commercial banks, as well as directions for increasing and developing them.

Key words: Islamic Finance, Islamic Banking, Murabaha, Musharaka, Muzaraba, Salam, Sukuk, Investment.

Kirish.

Bugungi kunda islom moliyasi, islom bank tizimi dunyo boylab rivojlanib kelmoqda va foizlarga asoslangan ananaviy bank tizimiga raqobatbardosh tizim sifatida baholanmoqda. Islom moliyasi ko‘p jihatdan dunyoviy bilimlardan farq qiladi, ya’ni islom ta’limoti nafaqat shariat qonun-qoidalarini balki iqtisodiy hayotni tartibga solish va turli xildagi iqtisodiy masalalarni yechishga yordam beradi. Islom moliyasining asosiy tamoyillaridan biri bu ribo va g‘ararning taqiqlanishidir. Islom moliyasi mexanizmi butun dunyoda an’anaviy bank tizimiga muqobil sifatida tan olindi va qisqa muddatda tijorat banklari bilan to‘liq raqobatlasha oladigan yaxlit mexanizmga aylandi.

Foizga asoslangan tijorat banklaridan farqli o‘laroq, islom banklari moliyalashtirish ishtirokchilari o‘rtasida foyda va zararlarni muvozanatli taqsimlash orqali tadbirkorlar va ishbilarmonlarni o‘ziga jalb qila oldi. Dunyo bo‘ylab musulmon davlati hisoblanmagan 48 ta davlat o‘z iqtisodiyotida islomiy moliyani joriy qilgan, jumladan, Buyuk Britaniya(4,4%), AQSH(0,9%), Singapur(14%), Shveytsariya(5,2%), Kanada(3,2%), Avstraliya(2,6%), Fransiya(9%), Germaniya(5%), Rossiya(15%) va Ispaniya(2,1%) kabi davlatlarning bank sektorida islomiy bank xizmatlari yuqorida sanab o‘tilgani kabi ulushlarga ega. Islom moliyasi mexanizmi o‘ziningadolatliligi va moliyaviy inqiroz darajasining pastligi bilan nafaqat musulmonlarni, balki boshqa din vakillarini ham o‘ziga tortib kelayotgani ayni haqiqat. Hozirgi kunda islom banki tamoyillari asosida moliyalashtirishning umumiy hajmi global miqyosda 3,2 trillion dollardan oshdi va 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 4,5 trln dollarga oshishi kutilmoqda. Islomiy moliyalashtirishning o‘sish ko‘rsatkichlari uning kuchliligi va global miqyosda qabul qilinishini ta‘minlaydi. Ta’kidlash joizki, 2008-yilda yuz bergan global moliyaviy inqiroz islom moliyasi va islom bank sohasiga katta zarar yetkazmaganligi islomiy moliya va islomiy bank tizimi asoslarini oqilona isbotladi. Moliya tarmog`ining islomiy ko`rinishi bo`lgan islom moliyasi bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va inovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o‘zida jamlagan sohalardan biridir. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar ko‘pchilikni tashkil qilishiga qaramay, O‘zbekistonda shu vaqtgacha Islom moliya sohasi Markaziy Osiyodagi qo‘shni mamlakatlarga qaraganda deyarli rivojlanmagan, vaholanki ushbu sohaning rivojlanishida mamlakat juda katta salohiyatga ega. Buni yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlar (Islom Taraqqiyot Banki Guruhi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, Osiyo Taraqqiyot Banki va b.) ekspertlari ham e’tirof etgan. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda Islom moliyaviy muassasalarini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar qilinmoqda. Xususan, banklarda islomiy darchalar va mikromoliya tashkilotlari ochilmoqda. Bundan tashqari, Islomiy banklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun zamin bo‘ladigan qonunchilik ishlab chiqilmoqda. Quvonarli tarafi, bunday ishlar prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib, soha rivoji

uchun alohida e'tibor ajratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekbrdagি Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqtি-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi"(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29.12.2020y.) deb, ta'kidlagan fikrlarini ham alohida misol qilish mumkin.

Bank-moliya tizimidagi xalqaro tanazzul oqibatida va moliya bozori infratuzilmasining tubdan takomillashtirilishiga bo'lgan ehtiyoj samarasi o'laroq, investitsiyaviy moliyalash hamjamiyatining islomiy shakliga bo'lgan e'tibori sezilarli darajada ortdi. Zamonaviy sharoitda global miqyosda islomiy moliyalashtirish segmenti eng tez rivojlanayotgan yo'naliishlardan biri hisoblanadi: "banklarning spekuliyativ faoliyati tanazzuli vaqtida islomiy institutlari foydasi yiliga 20-25 foizga, aktivlari esa 25 foizdan ziyod o'sib bormoqda"(Islamic Finance & Markets, Law Business Research,6/11-bet.2023) va 2024-yil uchun Islom dunyosining global bank aktivlari yillik aylanmasi 150 milliard dollardan ortiqroqga baholanmoqda. Islomiy bank xizmatlarining yetarlicha intensiv rivojlanishiga talabning ortishi va musulmon davlatlari tomonidan moliyaviy resurslarning sezilarli darajada to'planishi sabab bo'lmoqda. Arab davlatlarining bank sektori faol rivojlanib borayotgani va g'arbiy kompaniyalar o'rtasida xorijiy investorlarni jalb qilish uchun raqobat mavjudligini hisobga olsak, islomiy banklarning o'sish tendentsiyasi davom etishini ta'kidlash mumkin. Bu islomiy banklar faoliyatini yanada kengroq tahlil qilish, shuningdek ularning bank sektori tizimini amaliyotimizga joriy qilish imkoniyatlarini aniqlash uchun zarur shartlarni belgilaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston ham Islom moliyasi va bank xizmatlarini joriy qilish bo'yicha oldiga keng marralarni belgilab olgan, xususan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish uchun orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi(Farmon, 2023) tasdiqlangan bo'lib, uning ikkinchi

yo‘nalishi “Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish” deb nomlanadi va aynan shu yo‘nalish doirasida bir qancha iqtisodiy islohotlarni o‘tkazish belgilab berilgan. Strategiyaning 50-maqсади ham alohida ahamiyatga molik bo‘lib, “Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish” deb nomlanadi va bu maqsad doirasida kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish va islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish ta’kidlab o‘tilgan.

Adabiyotlar sharhi.

2008-yilda bo‘lib o‘tgan jahon moliyaviy inqirozidan keyin dunyo hamjamiyatining islom banklariga bo‘lgan qiziqishi yanada ortdi. Chunki mazkur inqiroz islom banki yo‘nalishini chetlab o‘tgan va islom korporatsiyalari ushbu inqirozda deyarli talofat ko‘rmagan. Shu jumladan O‘zbekiston ham aholisining 95%и musulmon o‘laroq islom bankini o‘zining istiqboldagi bank sektorida ko‘ra oldi. Ko‘plab davlatlar hamda ulardagи iqtisodchi olimlar islom moliyasini chuqur o‘rganib, o‘zlashtirib o‘z iqtisodiyotiga tadbiq qilish ustida izlanishlar olib bora boshladi.

Dodihev Fozil O‘tkurovich va Boboyorov Asilbek Yo‘ldoshovichlar (2022) o‘zlarining “O‘zbekistonda islomiy bank mahsulotlarini joriy etish istiqbollari” mavzusidagi maqolasida mamlakatimiz iqtisodiyotida islomiy bank mahsulotlarini joriy etishning zarurligi va ularni o‘ziga xos xususiyatlari va turlarini keng tahlil qilishgan. Shuningdek, islomiy bank mahsulotlarini joriy etish holati, bu bilan bog‘liq muammolar tadqiq etilib, ularni bartaraf etish qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Mualliflar maqolaning xulosa qismida bir qancha xulosa va takliflarni berib o‘tgan, jumladan xulosalarni:

- mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni ta’minalash uchun bank tizimida muqobil moliya institutlarini rivojlantirish va zamonaviy bank mahsulotlarini joriy etish kerakligi - mamlakatimizda “islom darchalari” faoliyatini boshlash uchun me’yoriy-huquqiy asos haligacha yaratilmagani;

- mavjud qonun bo‘yicha mamlakatimizda islomiy bank xizmatlarini faqatgina nobank kredit tashkilotlari ko‘rsatishga haqli, tijorat banklarining “islom darchasi” ochish jarayoni esa murakkab va qiyinligi;

Mualliflarning takliflar esa quyidagilardan iborat:

- mavjud qonunchilik sharoitida tijorat banklari nobank kredit tashkilotlarini ta’sis etib, ular orqali islomiy bank xizmatlarini ko‘rsatishni boshlashlari lozim. Ushbu nobank kredit tashkilotlari banklarda “islom darchasi” vazifasini bajaradi;

- mamlakatimizda islom bank mahsulotlarini joriy qilib, uning hajmini keskin oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga o‘zgartirish kiritib, banklarga islomiy bank xizmatlari ko‘rsatishga ruxsat berish lozim.

Dilmurod Yusupaliyevich Xujamkulov, Ruhiddin Xusniddin o‘g‘li Zayniddinov, Dilmurod Raxmatullayevich Ergashev, Mamajon Axmatjonovich Mamatov, Xusniddin Faxriddinovich O‘ktamovlar o‘zlarining “O‘zbekistonda investitsiya loyihibalarini moliyalashtirishda islom banki xizmatlaridan foydalanishni takomillashtirish” (2021) mavzusida ilmiy izlanish olib borishgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi yigirma yil davomida ba’zi bir an’anaviy banklar qo‘l ostida ba’zi islom banklari mahsulotlaridan foydalanilganligini o‘rganishdan iborat bo‘lib, olimlar O‘zbekistondagi empirik tajribalarni muhokama qilgan, shuningdek, islomiy moliyaviy xizmatlardan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha xorijiy tajriba va takliflar bilan bog‘liq tavsiyalar berilgan. Islom darchasi ko‘p hollarda islom moliya tizimi yoki islom moliyasi bo‘yicha qonunchilik mavjud bo‘lgan mamlakatlarda o‘rnataladi. Chunki, islom darchasi ma’lum bir davlatning amaldagi qonunlari va qonunchilik bazasidan kelib chiqib, an’anaviy bank mahsuloti sifatida cheklangan miqdordagi xizmat va mahsulotlarni taklif etadi. Islomiy bank xizmatlari va mahsulotlari odatda o‘sha mamlakatda tegishli qonunlar qabul qilingandan keyin to‘liq taqdim etiladi. Shuning uchun islomiy darchalarni o‘rnatishdan eng keng tarqalgan maqsadlar sifatida quyidagilar taqdim etilgan:

1. Mamlakatda islom moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabni o‘rganish;

2. Qo'shimcha xarajatlarsiz an'anaviy banklarda mavjud infratuzilma (binolar, xodimlar va boshqalar) asosida islomiy moliyaviy xizmatlarni taklif qilish;
3. O'rnatilgan islom darchalari faoliyatini o'rganish va chuqur tahlil qilish orqali mamlakatimizda "Islom moliyasi va bank ishi to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish bo'yicha amaliy takliflar kiritish;
4. Aholi va xususiy sektorning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ishtirokini oshirish;
5. Islom darchasi natijalarini tahlil qilish asosida banklarning kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish.

Ezzedine Ghamallah va boshqalar (2021) "Islom iqtisodiyoti va moliyasi tadqiqotlari mavzulari" asarida islom iqtisodiyoti va moliyasi yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar chuqur tahlil qilingan va o'rganilgan. Tadqiqotchilar 1979-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davr mobaynida chop etilgan 1500 ga yaqin ilmiy ishlarni o'rganib chiqishgan va iqtisodiy, moliyaviy va axloqiy masalalarni qamrab olgan 11 ta mavzu doirasida islom iqtisodiyoti va moliyasi adabiyotini yaxshi ta'riflash mumkinligini tadqiq qilishgan. Shuningdek asarda islom iqtisodiyotining an'anaviy iqtisodiy tizimda mavzuda bo'limgan o'ziga hosliklari haqida fikr yuritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur izlanishimiz mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni o'rganib chiqish va tahlil qilishga yo'naltirilganligi uchun bibliografik tadqiqot usulidan foydalanganmiz. Bunda ScienceDirect, Google Scholar bazalaridan tegishli kalit so'zlar bilan qidirish orqali 52 ta maqola ajratib olingan va o'rganilgan hamda ulardan 22 tasi mazkur ilmiy ishimizda o'z aksini topgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda ham yuqorida ta'kidlangan potensialni inobatga olgan holda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va bank sektoriga islom bank xizmatlarini joriy qilish bo'yicha turli imkoniyat va qulayliklar yaratib kelinmoqda. Shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan islom moliyasiga bo'lgan qiziqish va uni joriy qilish yo'lidagi sa'y-harakatlar asta-sekin o'z natijasini

ko'rsatmoqda. Xususan, 2022-yil 17-martda qabul qilingan "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish tashkilotlariga faoliyati davomida islomiy instrumentlardan foydalangan holda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish huquqini beradi. Bundan tashqari, joriy yilning 19-iyulida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 23/4-sonli qaroriga asosan "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi №3536-sonli Nizom tasdiqlandi va 26-iyuldan kuchga kirdi. Mazkur nizomga asosan Mikromoliya tashkilotlari quyidagi islomiy bank xizmatlarini ko'rsatishlari belgilab qo'yildi:

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 23/4-sonli qaroriga asosan Mikromoliya tashkilotlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat berilgan islomiy bank xizmatlar

T/r	Operatsiya nomi	Operatsiya mazmuni
1	Islomiy ijara	mikromoliya tashkiloti tomonidan mijozning arizasiga ko'ra sotib olingan yoki o'zining balansida bo'lган iste'mol qilinmaydigan ashyolarni(mol mulkni) mijozga kelishilgan muddatga vaqtincha egalik qilish va(yoki) foydalanish uchun topshirish.
2	Murobaha	nasiya savdoga asoslangan moliyalashtirish – mikromoliya tashkiloti tomonidan tovarning xarid narxi va unga ustama miqdorini qo'shgan holda, tovari nasiyaga sotish orqali mijozni moliyalashtirish.

3	Salam	oldindan to‘lovga asoslangan moliyalashtirish – kelajakda yetkazib beriladigan tovarlar haqini ushbu tovarlarni yetkazib beruvchiga (mijozga) mikromoliya tashkiloti tomonidan to‘liq miqdorda oldindan to‘lash orqali mijozni moliyalashtirish.
4	Muzoraba	Foydani taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish – mikromoliya tashkiloti tomonidan foyda olish maqsadida mijozning tijorat faoliyatiga pul mablag‘larini ajratish orqali mijozni moliyalashtirish.
5	Mushoraka	sherikchilik – foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish - mikromoliya tashkiloti tomonidan bir yoki bir nechta ishtirokchilar(mijozlar) bilan birgalikda tijorat faoliyatini(sherikchilikni) amalga oshirish yoki yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish orqali mijozni moliyalashtirish.

Shuningdek, Oliy Majlis Senatining 18-aprel kungi yalpi majlisida so‘zga chiqqan Markaziy bank raisi o‘rbinosari Behzod Hamroyev islom moliysi to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilgani, loyiha yil oxirigacha parlamentga kiritilishini ma’lum qildi(Kun.uz). “Bitta narsani tushunish kerak, bu yangi va murakkab soha. Qonunchilikka juda ko‘p o‘zgartirish kiritishni talab qiladi. Markaziy bank to‘g‘risidagi qonundan tortib, banklar faoliyati to‘g‘risidagi qonungacha. Hozir qonun loyihasi tayyor. 2024 yilda shuni ishlab parlamentda kiritish vazifamiz bor deb hisobotimda ham aytib ketdim. Undan tashqari, bizda boshqa qonunga o‘zgartirish kiritilgan. Mikromoliya tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunimizda alohida tartibi bor,

buning endi nizomi kutilayotgan edi. Bu Markaziy bank tomonidan ishlab chiqildi. Bu islomiy moliya xizmatlarini ko‘rsatishga oid. Davlat ro‘yxatidan o‘tish kerak, shundan keyin bu sohada ishlash boshlanadi”, dedi Behzod Hamroyev o‘z nutqida.

Islom moliyasini amaliyotga joriy qilishda faqatgina qonunchilik bazasini yaratishning o‘zi yetarli bo‘lib qolmaydi. Bunda, iqtisodiy sektorning faol ishtirokchilarini, xususan, biznes vakillari, tijorat banklari va ularning mijozlari bazasini tashkil qiluvchi jismoniy shaxslarning islom moliyasi haqidagi bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish bo‘yicha amaliy islohatlarni jadallashtirish lozim.

2-jadval

O‘zbekistonliklarning Islom moliyasi haqida habardorlik darajasi

(UNDP, 2020)

Islom moliyasini bilish darajasi	Biznes		Banklar		Jismoniy shaxslar	
	Respondentlar soni	Foizda	Respondentlar soni	Foizda	Respondentlar soni	Foizda
Juda oz bilaman	677	36%	2	7,41%	137	3,93%
Umumiy tushunchalarga egaman	580	31%	18	66,67%	1699	48,74%
Ma’lumotga ega emasman	326	17%	1	3,70%	972	27,88%
Qanchalik bilishimni baholay olmayman	290	15%	6	22,22%	678	19,45%
Jami	1873	100%	27	100%	3486	100%

2020 yil boshida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi doirasida “O‘zbekistonda islomiy moliya mahsulotlari tahlili” bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot va uning doirasida o‘tkazilgan so‘rovnama natijalariga ko‘ra, mamlakat

iqtisodiy lokamativi bo‘lmish biznes vakillarining 36% i islom moliyasi to‘g‘risida juda oz bilimga ega ekanliklarini, 17% i esa umuman hech narsa bilmasliklarini aytishgan. Bu ko‘rsatkich banklar va jismoniy shaxslar doirasida mos ravishda 7,41% va 3,70% hamda 3,93% va 27,88% ni tashkil qiladi. Mazkur ko‘rsatkichlar jamiyatimiz vakillarining islom moliyasi, islomiy bank xizmatlari bo‘yicha yetarlicha tushunchaga ega emasligini ko‘rsatadi.

Islom bank xizmatlari O‘zbekiston bank sektori uchun yangi yo‘nalish bo‘lganligi uchun mazkur produktlarni ommaga taklif qilish albatta chuqur tahlillar o‘tkazishni taqozo qiladi. Quyidagi jadvalda ushbu yo‘nalishning SWOT tahlili keltirilgan:

3-jadval

Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini tashkil etishning SWOT tahlili

Avzalliklari	Imkoniyatlar
<p>1. Xizmatlar sifati an'anaviy bank xizmatlaridan qolishmaydi. Bu bir xil bozorda joylashgan banklar uchun (foizlar asosida) raqobatni oshiradi;</p> <p>2. Chakana va korporativ bank mahsulotlari orqali katta miqdordagi jamg‘armalarni jalb qilish (musulmon tadbirkorlarning ko‘pligi tufayli) va shu tariqa banklarning depozit bazasini ko‘paytirish mumkin;</p> <p>3. O‘zbekiston aholisining 95% musulmon;</p> <p>4. Jahon amaliyotida islom banklarining barqaror rivojlanishi va</p>	<p>1. Tijorat banklarida islom moliyasiga asoslangan bank xizmatlarini joriy qilish raqobatni kuchaytiradi va musulmonlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi, sudxo‘rlikdan saqlanish uchun bank kreditlaridan foydalanmaydigan musulmon tadbirkorlarga keng imkoniyatlar taqdim etadi;</p> <p>2. Muqobil bank xizmatlarining paydo bo‘lishi bilan aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi;</p> <p>3. Islom bozori, ya’ni islom ipotekasi, islom sug‘urtasi, yangi</p>

<p>moliyaviy-iqtisodiinqirozning oldini olish;</p> <p>5. O‘zbekiston iqtisodiyotini moliyalashtirish uchun IDB guruhidan qo‘sishimcha mablag‘larni jalb qilish;</p> <p>6. Kredit mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanish;</p>	<p>investitsiya loyihalari o‘sishi bilan yangi bozorlar paydo bo‘ladi.</p> <p>4. Islomiy moliya tamoyillari ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga, ijtimoiy adolatni o‘rnatishga yordam beradi;</p> <p>5. O‘zbekistonda real ishlab chiqarishni rag’batlantirish:</p> <p>6. Arab va Osiyo davlatlaridan investitsiya mablag’larini jalb qilish va ularni mahalliy iqtisodiyotga yo‘naltirish.</p>
<p>Kamchiliklari</p> <p>1.Tijorat banklari tomonidan islomiy bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yishning huquqiy asoslari mavjud emasligi;</p> <p>2. Islom bank xizmatlari bo‘yicha mutaxassislarning etishmasligi;</p> <p>3. Aholi va tadbirkorlarning islomiy moliyalashtirish xizmatlari haqida yetarlicha bilimga ega emasligi;</p> <p>4.Aholining yangi moliyaviy xizmatlarga ishonchsizligi;</p> <p>5. Islom bank xizmatlarida soliq solinadigan baza bilan bog’liq muammolar mavjudligi;</p>	<p>Risklar</p> <p>1. Islom bank xizmatlarining terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liqligi haqida turli noto‘g’ri tushunchalarning mavjudligi;</p> <p>2. An'anaviy banklar bilan kuchli raqobatning mavjudligi;</p> <p>3. Ba’zi islomiy tamoyillarning amalda chetga chiqishi va butun tuzumga ishonchsizlik paydo bo‘lishi;</p> <p>4. Tizim yirik transmilliy korporatsiyalar, investitsiya banklari va jahonning yirik iqtisodiy kuchlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi.</p>

6. Islom banklari kapitalining etishmasligi va yirik kreditlar ajratilmamasligi;	
--	--

Yuqoridagi SWOT jadvalimizdan ko‘rinib turibdiki, islom bank xizmatlarini bizning tijorat banklarida joriy qilishning o‘ziga xos avzalliklari va yutuqli tomonlari bor. Bunga mos ravishda imkoniyatlar ham bor va o‘z navbatida qamrovi ham kengayib bormoqda. Bu borada eng katta yutuq sifatida mamlakatimiz aholisining 95% i musulmon ekanligini aytishimiz mukin. Biroq, shu bilan birgalikda, islom tamoyillariga asoslangan bank tizimini taklif qilishdan oldin o‘z navbatida moliyalashtirish resurslari haqida ham o‘ylab qo‘yishimiz kerak bo‘ladi. Chunki hozirgi foizga asoslangan ananaviy bank tizimidagi moliyalashtirish kapitali ham foizlar asosida jamlangandir.

4-jadval

O‘zbekiston tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy qilishda mavjud muammolar va yechimlar

T/r	Mavjud muammo	Taklif qilinayotgan yechim
1	Me’yoriy-huquqiy bazaning mavjud emasligi	<p>Tijorat banklari tomonidan islomiy bank xizmatlari ko‘rsatilishini tartibga solib turuvchi ichki qonunchilikni tasdiqlash;</p> <p>Islom korporatsiyalari bilan hamkorlik qilish va ulardan islom shariatlariga muvofiq resurs jalb qilish tartibini ishlab chiqish;</p> <p>Tijorat banklarining ichki hujjatlari tarkibiga islomiy xizmatlar bo‘yicha ichki</p>

		<p>siyosatni ishlab chiqishni joriy qilish;</p> <p>Tijorat banklarida islomiy tamoyillar asosida depozit jalb qilish bo‘yicha ichki siyasatlarni ishlab chiqish;</p> <p>Islom tamoyillari asosida jalb qilingan depozitlar Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi(FGD) tomonidan kafolatlanish tartibini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;</p>
2	Aholi va biznes vakillarining islom moliyasi bo‘yicha habardorlik darajasi pastligi	<p>Ommaviy axborot vositalarida islom bank xizmatlarini keng reklama qilish;</p> <p>Maktab va oliv ta’lim muassasalarida islom moliyasi bo‘yicha fan dasturlarini o‘qitishni tashkil qilish;</p> <p>Islom korporatsiyalarida amaliy stajirovka o‘tash bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturini ishlab chiqish va ushbu sohada yetuk kadrlarni tayyorlash;</p> <p>Diniy qo‘mita tomonidan ma’ruza qilishga ruxsat berilgan qorilar xalqqa o‘z maruzalarida islom moliyasi haqida tushunchalar berib borishlarini o‘z dasturlariga kiritish;</p>

Bank sektoriga islom bank xizmatlarini joriy qilish va ularni rivojlantirish yuzasidan mavjud muammolarni yuqoridagi 4-jadvalda ikki guruhga bo‘lgan holda tahlil qilishga harakat qildik va islom moliyasi bo‘yicha aholining savodxonlik darajasi pastligini hamda mazkur yo‘nalish bo‘yicha qonunchilik bazasining tayyormasligi kabilarni asosiy muammolar deb hisobladik.

Xulasa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakat iqtisodiyotining joriy holatidagi bazi oqsoqlanayotgan yo‘nalishlarni, xususan, bank sektoridagi foizli kredit va depozitlarga bo‘lgan talablarning kamayishi, kredit partfelidagi muammoli kreditlar ulushining ortib borayotganligi, mijozlarda boshqa tanlov yo‘qligi kabilar banklarda yangi yo‘nalish- islom moliyasini olib kirishni va ommaga keng taklif qilish vaqt kelganligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Buning uchun albatta mazkur yo‘nalishda avvalo qonunchilikni ishlab chiqish va qolaversa aholining islom moliyasi haqidagi tushunchalarini kengaytirish oldimizdagi asosiy masala bo‘lishi kerak. Shu yo‘l orqali tadbirkorlik faoliyatini munosib rag‘batlantirish, xalqaro savdoni osonlashtirish va qashshoqlikni bartaraf etish hamda investitsiya oqimlarini oshirish kabi mikro va makro darajadagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarimizni ham yaxshilashimiz mumkin.

Adabiyotlar / Literatura / Reference:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. A.N.Ahmad, M., Umar, A. A., Khamidi, M. F., & Idrus, A. (2014). Financing PF2 projects: Opportunities for Islamic project finance. Procedia engineering, 77, 179-187.
3. Kharon S., Nursofiza V., Azmi V. Islamskaya finansovaya i bankovskaya sistema: Filosofiya, printsipy i praktika. Kazan': Linova-Media, 2012. 536 p.
4. Khan M.F. Money and Banking in Islam. Institute of Policy Studies, 2013.
5. Abdul Rahman Yousri Ahmad. (2018). Islamic securities in muslim countries’ stock markets and an assessment of the need for an islamic secondary market. The Islamic economic studies, 3, pp. 2-47.

6. Abrorov Sirojiddin va Imamnazarov Jahongir. (2021). Iqlisom moliyasi: O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar. Iqtisodiyot va ta’lim, 4, pp. 146-149.
7. Abrorov Sirojiddin. (2023). Sukuk bozorini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 1, pp.13-20.
8. Andrea Foglie and Ida Panetta. (2020). Islamic stock market versus conventional: Are islamic investing a 'Safe Haven' for investors? A systematic literature review. The pacific-basin finance, 64, pp. 2-29
9. Fakhridinkhujaev, S. (2023) 'Can Islamic Finance drive banking sector development in Uzbekistan?,' The Diplomat, 30 August.
[https://thediplomat.com/2023/08/can-islamic-finance-drive-bankingsectordevelopment-in-uzbekistan/](https://thediplomat.com/2023/08/can-islamic-finance-drive-banking-sectordevelopment-in-uzbekistan/).
10. Spot.uz (2019). Islamskiy bank razvitiya: vnedreniye islamskogo bankinga pozvolit Uzbekistanu privlech \$10 mlrd. 15.04.2019.
11. H. Hasanov The book "Fundamentals of Islamic Finance" Part 5 Chapter 13;